



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 27.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



F.M.To'xtaboyeva., N.R. Xamidullayeva.,

R.U. Erkinova., M.A. Shavkatbekova

Andijon davlat universiteti

Uzbekistan

feruzatoyeva1971@gmail.com

nozimaxonxamidullayeva1307@gmail.com

hfdtgfcc@gmail.com

msh20040702@gmail.com

FERMENTLARNING BIOTEKNOLOGIYA VA GEN MUHANDISLIGIDA QO'LLANILISHI

Abstract: This article is dedicated to the study of enzymes and their involvement in various technologies. It analyzes the biochemical properties of enzymes and their applications in the food, pharmaceutical, chemical industries, as well as in medicine and ecology. Additionally, the significance of enzymes in biotechnology and genetic engineering, along with their role in creating new industrial opportunities, is examined. This work aims to highlight the current importance of technological solutions related to enzymes and explore their future development directions.

Keywords: substrate, denaturation, recombinant DNA, gene therapy, metabolic engineering, active site, catalyst.

Annotatsiya: Mazkur maqola fermentlar va ularning ishtirokidagi texnologiyalarni o'rganishga bag'ishlangan. Unda fermentlarning biologik-kimyoviy xususiyatlari, ularning oziq-ovqat, farmatsevtika,

kimyo sanoatlari hamda tibbiyot va ekologiyadagi qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, fermentlarning biotexnologiya va gen muhandisligidagi ahamiyati, ularning sanoatda yangi imkoniyatlarni yaratishdagi roli ko'rib chiqiladi. Ushbu ish fermentlar bilan bog'liq texnologik yechimlarning hozirgi kundagi ahamiyati va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: substrat, denaturatsiya, rekombinant DNK, gen terapiyasi, metabolik injineriya, faol nuqta, katalizator.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению ферментов и технологий, в которых они участвуют. В ней анализируются биологические и химические свойства ферментов, их применение в пищевой, фармацевтической, химической промышленности, а также в медицине и экологии. Также рассматривается значение ферментов в биотехнологии и генной инженерии, их роль в создании новых возможностей для промышленности. Работа направлена на освещение актуальности технологических решений, связанных с ферментами, и направлений их дальнейшего развития в будущем.

Ключевые слова: субстрат, денатурация, рекомбинантная ДНК, генная терапия, метаболическая инженерия, активный центр, катализатор.

Language: Uzbek

Citation: Tokhtaboyeva, F., Khamidullayeva, N., Erkinova, R., & Shavkatbekova, M. (2024). APPLICATION OF ENZYMES IN BIOTECHNOLOGY AND GENETIC ENGINEERING. Universal International Scientific Journal, 1(9), 192–195. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1389>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.1456506>

Fermentlar katalizatorlar bo'lib, odatda ular oqsil, ba'zida RNK molekulalari ham bo'lishi mumkin. Fermentlar reaksiya sodir bo'lishi uchun kerakli energiya miqdori – aktivlanish energiyasini pasaytiradi. Ular buni substratga yopishish va reaksiyani unumliroq qilish orqali amalga oshiradi.[1]

Fermentning substratga birikuvchi qismi faol nuqta deb ataladi. Bu holatda ferment tuzilishini biroz o'zgartiradi va ferment/substrat kompleksini hosil qiladi.

Fermentning faolligiga turli xil omillar – harorat, pH va konsentratsiya ta'sir qilishi mumkin.[2]

Fermentlar o'ziga xos temperatura va pH ko'rsatkichlarida o'z funksiyasini bajara oladi. Agar ko'rsatkichlar ushbu optimal darajadan ortsa yoki kamaysa, ferment substratga birikish qobiliyatini yo'qotadi. Harorat: haroratning ortishi reaksiya tezligini oshiradi, tushishi esa reaksiyani sekinlashtiradi. Lekin o'ta yuqori haroratlarda fermentlar o'z

tuzilishini o'zgartiradi (denaturatsiyaga uchraydi) va faoliyatini to'xtatadi. pH: har bir ferment o'zining optimal pH ko'rsatkichiga ega. Ushbu ko'rsatkichning o'zgarishi ferment faolligini pasaytiradi. pH ning yuqori ko'rsatkichlarida fermentlar denaturatsiyaga uchrashi mumkin.[1]

Ferment konsentratsiyasi: Ferment konsentratsiyasini oshirish uning substratga birikishini oshiradi va bu reaksiya tezligini oshiradi. Hamma substrat birikkandan keyin reaksiya tezligi oshishdan to'xtaydi, chunki ortiqcha ferment birikishi uchun ortiqcha substrat qolmaydi.[2]

Substrat konsentratsiyasi: Substrat konsentratsiyasini oshirish ham reaksiyaning tezligini ma'lum miqdorda oshiradi. Hamma fermentlar substratga birikib bo'lgandan so'ng reaksiya ma'lum miqdorda oshadi, lekin har qanday ortiqcha substrat miqdorining ortishi reaksiya tezligiga ta'sir ko'rsatmaydi.[2]

Fermentlarning biotexnologiyada va gen muhandisligidagi ahamiyati:

Fermentlar biologik katalizator sifatida turli xil jarayonlarni tezlashtiradi va boshqaradi. Biotexnologiya va gen muhandisligi sohalarida ular DNK manipulyatsiyasi, gen klonlash, oqsil sintezi, diagnostika va sanoat ishlab chiqarishida muhim o'rin tutadi. Quyida fermentlarning

ushbu yo'nalishlardagi asosiy vazifalari kengroq bayon etiladi.

1. Rekombinant DNK texnologiyasida fermentlar. Restriktaza fermentlari: Bu fermentlar DNK molekulalarini ma'lum nukleotid ketma-ketligida kesib tashlaydi. Ular yangi genlarni ajratib olish va boshqa organizmlarga kiritish uchun ishlatiladi. Masalan, bakteriyalarda insulin ishlab chiqaruvchi genni joylashtirishda restriktazalar qo'llaniladi.

Ligaza fermentlari: DNK zanjirlarini birlashtirishda ishlatiladi. Bu jarayon yangi genetik kombinatsiyalar yaratishda muhim ahamiyatga ega.[4]

2. Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR). DNKni minglab nusxalarda ko'paytirish imkonini beradi. Bu jarayonda Taq-polimeraza kabi termostabil fermentlar qo'llaniladi.

PZR texnologiyasi inson genomini o'rganish, genetik kasalliklarni diagnostika qilish, kriminalistikada DNK tahlili va viruslarni aniqlashda keng qo'llaniladi.[3]

3. Gen terapiyasi va rekombinant protein ishlab chiqarish. Fermentlar yordamida genetik modifikatsiya qilingan hujayralar yaratiladi. Bu hujayralar kasalliklarni davolash yoki profilaktika qilish uchun ishlatiladi.

Rekombinant proteinlar, masalan, insulin, interferon va vaksinalar, fermentlar

yordamida mikroorganizmlarda yoki hujayra kulturasi asosida ishlab chiqariladi.[4]

4. Metabolik injeneriya va fermentlarning roli. Hujayralarda fermentlar yordamida metabolik yo'llar modifikatsiya qilinadi. Bu texnologiya bioyoqilg'i (etanol, biogaz) ishlab chiqarishda yoki dorivor moddalarning sintezida qo'llaniladi. Misol uchun, sellulaza fermenti qattiq biomassa materiallarini shakar molekulalariga aylantirish orqali bioyoqilg'i ishlab chiqarishda ishlatiladi.[3]

5. Biologik sensorlar va diagnostika vositalari. Fermentlardan biosensordlarda foydalaniladi. Masalan, diabet kasalligini aniqlashda ishlatiladigan glyukoza oksidaza glyukozaning miqdorini tez va aniq o'lchash imkonini beradi. DNK yoki oqsil asosida mutatsiyalarni aniqlashda fermentativ texnologiyalar qo'llaniladi.[3]

6. Sanoatda fermentlarning qo'llanilishi. Oziq-ovqat sanoati: Laktoza, kraxmal va boshqa polimerlarni gidroliz qilish uchun fermentlardan foydalaniladi.

Kimyo sanoati: Enzimatik kataliz orqali yuqori sifatli kimyoviy mahsulotlar (farmatsevtiklar, plastmassa) ishlab chiqariladi.

7. Atrof-muhitni himoya qilishda fermentlar. Biodegradatsiya jarayonlarida fermentlar ifloslovchi moddalarni zararsizlantirishga yordam beradi. Fermentlar biologik tozalash jarayonlarida ishlatiladi, masalan, neft to'kilishlarini tozalash yoki chiqindilarni parchalashda.[3]

XULOSA

Fermentlar biotexnologiya va gen muhandisligining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular biologik jarayonlarni boshqarishda, inson salomatligini yaxshilashda, ekologik muammolarni hal qilishda va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishda ulkan ahamiyatga ega. Fermentlarning o'rganilishi va ularning yangi xususiyatlarining kashf qilinishi biotexnologiyaning kelajagini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Biologik kimyo. B.I.Zbarskiy, I.I. Ivanov, S.R. Mardashov. "Meditsina" nashriyoti. Toshkent-1972
2. Biokimyo. Y.X. To'raqulov. Toshkent "O'zbekiston" – 1996
3. <https://uz.khanacademy.org/science/high-school-biology/hs-energy-and-transport/hs-enzymes/a/hs-enzymes-review>
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/kimyo/fermentlarning-sinflanishi-kofermentlar-fermentlarning-kimyoviy-xossalari-biokimyo>
5. Q.Q.Qo'chqarov, F.M. To'xtaboyeva-BIOTEXNOLOGIYANING EKOLOGIK ASOSLARI (O'quv qo'llamma) TOSHKENT-2016